LINGVOKULTUREMA TUSHUNCHASI

Umurzaqova Muxayyoxon Raxmatullo qizi
Farg'ona soliq texnikumi ingliz tili fani o'qituvchisi
muhayyo10@bk.ru

Qabul qilindi: 01.11.2025
Ko'rib chiqildi: 02.11.2025
Tasdiqlandi: 03.11.2025

Kalit so'zlar:
lingvokulturema, lingvistik, realema, realiya, sintagma.

Keywords:
lingvokulturema, linguistic, realema, reality, syntagma.

Annotatsiya. Ushbu tezis lingvokulturema atamasi, uning tuzilishi tarkibi haqida keng ma'lumot beradi.

Abstract. This article provides a broad overview and detailed information about the field of linguoculturology and the schools established to develop it, as well as the organizers of the schools.

Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturema til sathi birligi deb qaraladi va unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo'lib, bu yaxlitlik o 'z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmunni qamrab oladi. Dialektik aloqa obyektni anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid sathdan tashqari komponentlarini, ularning notengligini, farqini, ikkinchi tomondan ularning mosligini, aynan o'xshashligini taqozo etadi.

Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning "yuzaki", ya'ni tilga oid o 'z ma'nosi haqida, balki uning tugal" mazmuni (ma'nosi) madaniyatning asosi (elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi.

Tadqiqotchi V.V.Vorobyev, lingvokulturemaning tuzilishi va tarkibini o'rganib, o'z e'tiborini til birliklarini "madaniylashtirish" jarayonida til o'rganuvchilami ma'nodan, "aniqlashdan" bilim tomon olib borishga va belgi-predmetni u yoki bu millatga xos bo'lgan madaniy assotsiatsiyalar tarmogMga kiritishga qaratadi. Uning fikricha, "tarkibida yashirin mavjud bo'lgan "teran mazmun" lingvokulturemaning madaniy-tushunchaga oid ma'noviy jihati ochiladi" (Vorobyev, 1997). Har qanday kommunikatsiyaning oxirgi natijasi xususan tilni tushunish emas, balki tildan tashqaridagi ma'lumotni (shu jumladan, uning doirasida munosabat amalga oshiriladigan madaniyatni) o'zlashtirishdir.

Lingvokulturemalar o'z ifodasida rang-barangdir - ular so'z bilan, so'z birikmasi bilan, matn abzatsi bilan, she'r bilan va hatto bir necha uzunlikdagi matn bilan berilishi mumkin. Bu birlik o 'z mazmuniga ko'ra so'zga qaraganda ancha "terandir" So'z referent bilan o 'zaro bog'lanishda bo'ladi, unga "havola qilinadi", lingvokulturema uning mazmunini tushuncha (predmetlar sinfi) sifatida ochib beradi.

Birinchisi realemalar bilan cheklanadi, ikkinchisi - biror belgi bilan o‘zaro bog’lanishda bo’lgan predmetlar sinfi ichidagi realiyalarning o’ziga xos xususiyatini va sistematizatsiyasini (tartibga solinishishni) aks etiradi. “Lingvokulturema ham o‘z til tasavvurini (“fikr shaklini”), ham u bilan uzviy bog’langan “tildan tashqari, madaniy muhitni” (vaziyatni, realiyani) hamda chegaralari beqaror va barqaror assotsiatsiyalar tarmog’ni o ‘z ichiga oladi, o ‘zida to‘playdi. Shu tufayli ham so‘z-belgi alohida madaniy kommunikatsiyaning tilini biladigan odamda ma’noni nafaqat ishora tarzida (A.A.Potebnya), balki “madaniy oreolning” butun majmuini uyg‘otadi.

(Vorobyev, 1997) V.V. Vorobyev lingvokulturema tushunchasini tadqiq qilib, uning iyerarxik tizimi birliklari, ya’ni lingvokulturemalarni tashkil etuvchi lingvomadaniy maydonni tavsif obyektining asosiy birligi sifatida oladi. Bunday maydonlar olamning etnik manzarasini barpo etadi, ularni qiyoslash esa tillardagi va madaniyatlardagi o‘xshashlik va farq qiluvchi jihatlarni aniqlaydi. (Vorobyev, 1997)

Shunday qilib, lingvokulturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so‘zning tildan tashqari mazmuni va keyingi (tushunchaga oid-predmetga oid) ma’nosi sifatida albatta ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mamaatov A. Zamonaaviy lingvistika. Darslik. Toshkent.Taafakkur avlodi 2020 . 11 b
2. Maslova V.A. “Conceptual Basics of Modern Linguistics” (Moscow: Flinta Publ., 2019.)
3. Maslova V.A. “Conceptual Basics of Modern Linguistics” (Moscow: Flinta Publ., 2019.)
4. Usmanova Sh., Lingvokulturogiya. Darslik.-T.2019.- 90 b